

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA "KELAJAK" MARKAZI**

KELISHILDI

**Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
o'rinbosari**


F. Boqiyev
2025-yil



TASDIQLANDI

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim
muassasalari agentligi huzuridagi**

**Pedagogik mahorat va xalqaro
baholash ilmiy-amaliy markazi
direktori**


D. Davidova
2025-yil



KELISHILDI

Respublika "Kelajak" markazi direktori


I. Xoldarova
2025-yil

**DAVLAT UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI
MAKTAB MASLAHATCHISI LAVOZIMIGA NOMZODLARNI
BAHOLASH UCHUN TEST SINOV
SPETSIFIKATSIYASI**

**DAVLAT UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI
MAKTAB MASLAHATCHISI LAVOZIMIGA NOMZODLARNI
BAHOLASH UCHUN TEST SINIVI
SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya umumiy o'rta ta'lim maktabi maslahatchisi lavozimiga ishga qabul qilish bo'yicha hujjat topshirgan nomzodlarni malaka (test) sinovidan o'tkazishda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, formati, baholanadigan kognitiv ko'nikmalari, topshiriq turlari, baholash mezonlari va test sinovini o'tkazish tartibiga qo'yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Maqsad

Baholashning asosiy maqsadi – umumiy o'rta ta'lim muassasalarida maktab maslahatchisi lavozimiga nomzodlarning ta'lim muassasalarida o'quvchilarning tashabbuskor, ijodkor, vatanparvar va har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga yo'naltirilgan faoliyatni samarali tashkil etish, kasbga yo'naltirishga tayyorlik darajasini aniqlash. Shuningdek, malaka sinovi jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta'minlash hisoblanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentyabrdagi "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-277-son Qarori
3. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 17-sentyabrdagi QMMB:07/25/277/0833-sonli buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

III. Baholashda qamrab olingan mazmun sohalar

1. Asosiy kompetensiyalar

1. Tashkiliy-pedagogik va kommunikativ ko'nikmalar
2. O'quvchini qo'llab-quvvatlash va kasbga yo'naltirish ko'nikmalari
3. Liderlik va tashabbuskorlik ko'nikmalari

2. Qo'llab-quvvatlovchi kompetensiyalar

1. Ta'lim siyosati va davlat tilida hujjat yuritish ko'nikmalari
2. Raqamli savodxonlik va axborot madaniyati ko'nikmalari
3. Ingliz tili bo'yicha ko'nikmalar

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

Mazmun soha	Konstruktlar	Testlar soni
1. Asosiy kompetensiyalar		
1.1. Tashkiliy-pedagogik va kommunikativ ko'nikmalar	Ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlagan holda sinfdan tashqari mashg'ulotlar — to'garaklar, klublar, ijtimoiy aksiyalar, loyihalar va tadbirlarni ilmiy-metodik asoslarda tashkil etishning mazmuni va tamoyillarini bilishi; o'quvchilarning tashabbusi, ijodkorligi va ijtimoiy faolligini rivojlantiruvchi sinf va maktab darajasidagi loyihalar, treninglar va klublarni o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda ehtiyojlaridan kelib chiqib qo'llay olishi; ta'lim jarayonida ota-onalar, o'qituvchilar va jamoatchilik bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishning ahamiyati va mexanizmlarini tahlil qilib, tarbiyaviy jarayonni yaxlit va mazmunli tashkil etish bo'yicha mulohaza qila olishi; o'quvchi bilan ishonchli, qo'llab-quvvatlovchi pedagogik muloqot va ijobiy sinf muhitini shakllantira olishi; jamoada kelib chiqadigan nizolarni tahlil qilib, ularni bartaraf etishda sog'lom psixologik muhitni saqlashga yo'naltirilgan yondashuvlardan foydalana olishi; oila-maktab-jamiyat hamkorligining tarbiyadagi o'rnini tushunib, ota-onalar va pedagoglar bilan samarali muloqot ko'nikmalari	5
1.2. O'quvchini qo'llab-quvvatlash va kasbga yo'naltirish ko'nikmalari	Tarbiyaviy ta'sir natijalarini oldindan ko'ra olish, tarbiya orqali shaxs ongiga, his-tuyg'usiga va xulqiga ta'sirni tushunish; kasb tanlashga ta'sir qiluvchi psixologik, tibbiy-biologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni bilishi va farqlay olishi, o'quvchi qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlarini aniqlash, ularni mehnat bozori talablari bilan moslashtira olishi, kasblarning zamonaviy tasniflari va kasbiy o'zini anglash jarayonini bilishi, kasb tanlashdagi keng tarqalgan xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilay olishi, kasb tanlash jarayonida oila, jamiyat va ta'lim muassasasi hamkorligining rolini tushuna olishi, O'quvchining kasbiy qiziqishlari va moyilliklarini aniqlashning umumiy tamoyillarini bilishi hamda tahlil qila olishi	6
1.3. Liderlik va tashabbuskorlik ko'nikmalari	Liderlik va tashabbuskorlik mohiyatini bilishi, liderlikni mansab emas, boshqalarga xizmat qilish va jamiyat taraqqiyoti uchun mas'uliyat sifatida tushunishi, Innovatsiyani yangi g'oya va tashabbuslarni hayotga ijodkorona tatbiq etish, yangicha qarash va yondashuvlarni bilishi, motivatsiya va ruhlantirishning o'quvchi va jamoa hayotidagi rolini anglashi, yo'lni shunchaki davom ettirish" emas, yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqish kerakligini anglashi, O'quvchilarning ehtiyojini tahlil qilib, masalan, ijtimoiy-emotsional o'qitish, karera yo'nalishi, ijobiy intizom bo'yicha yangi trening, mentorlik, kichik loyiha shaklida tashabbuslarni amaliyotga tatbiq eta olishi, vaqtini va faoliyatini samarali boshqarib, o'zini rivojlantirish, halollik va xizmatga	4

	tayyorlik orqali o'quvchi va o'qituvchilar uchun shaxsiy namuna ko'rsata olishi, o'z liderlik uslubini tanqidiy tahlil qilish, tashabbus ko'rsatishda uchraydigan ichki va tashqi to'siqlarni anglash, etik chegaralar va o'quvchi manfaatini e'tiborga olgan holda qarorlar ustida mulohaza yurita oladi	
2. Qo'llab-quvvatlovchi kompetensiyalar		
2.1. Ta'lim siyosati va davlat tilida hujjat yuritish ko'nikmalari	Ta'limga oid asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarni (Qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, VMQ qarorlari, vazirlik buyruqlari, nizom va ustavlar) farqlay olishi, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun hamda maktabgacha va maktab ta'limiga oid normalarni bilishi; O'quvchilarning huquq va majburiyatlari, maktabdan tashqari ta'lim va "Kelajak" markazlariga doir hujjatlar asosida amaliy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi; davlat tilida ish yuritishning me'yoriy asoslarini, rasmiy uslub talablari doirasida rasmiylashtira olishi; bayonnoma, dalolatnoma, ariza, tushuntirish xati, ma'lumotnoma kabi rasmiy hujjatlarni tuza olishi, matnlardagi imloviy, punktuatsion va uslubiy xatolari topib, to'g'rilay olishi, rasmiy hujjatlarni to'g'ri tushunib, tahlil qila olishi.	5
2.2. Raqamli savodxonlik va axborot madaniyati ko'nikmalari	Raqamli texnologiyalarning mohiyatini, vazifalarini bilishi, Word, Excel, PowerPoint asosiy funksiyalarini bilishi, elektron tizimlarda (portal, bulutli xizmatlar) hujjat bilan ishlay olishi; "ERP.PORTFOLIO" yuritish, axborot tizimlaridan samarali foydalanish jarayonlarini muhokama qila olishi; internet manbalarining turini hamda ishonchlilik mezonlarini bilishi, foydalanuvchi xavfsizligi va maxfiylik sozlamalaridan foydalana olishi, internetda axborot izlash, tanlash va baholashni tahlil qila olishi, kiberxavf turlari va ularning belgilarini bilishi, sun'iy intellekt tushunchasi, turlari va imkoniyatlarini, AI vositalarini qo'llay olishi	4
2.3. Ingliz tili bo'yicha ko'nikmalar	Rasmiy xatlar mazmunini anglay olishi ("motivation letter"); grammatika va leksik strukturani qo'llashi; ingliz tilida matnlarni (maqola, tavsiya, metodik material) o'qib umumiy mazmunini tushunishi; o'quvchilar, ota-onalar yoki xalqaro hamkorlar bilan sodda muloqot yurita olishi. (o'zini tanishtirish, vaziyatni izohlash, tavsiyalar berish va qabul qilish)	6
Jami		30 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

T/r	Kompetensiyalar	Mazmun sohalar	Ball (har bir to‘g‘ri javob uchun)	Ajrat. vaqt
1.	Asosiy kompetensiyalar	O‘quvchini psixologik qo‘llab-quvvatlash va kasbga yo‘naltirish ko‘nikmalari	3.1	80 daqiqa
		Tashkiliy-pedagogik va kommunikativ ko‘nikmalar		
		Liderlik va tashabbuskorlik ko‘nikmalari		
2.	Qo‘llab-quvvatlovchi kompetensiyalar	Ta‘lim siyosati va davlat tilida hujjat yuritish ko‘nikmalari	2.1	
		Media savodxonlik va axborot madaniyati ko‘nikmalari		
		Ingliz tili bo‘yicha ko‘nikmalar		
Jami			78 ball	

VIII. Imtixon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtixon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtixon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Aminov M. va boshq., Davlat tilida ish yuritish. Toshkent – 2021.
2. Anvarova D. va boshq., Kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash asoslari. 2016
3. Fayziyeva M.R. va boshq., Raqamli texnologiyalar va sun‘iy Intellekt. 2023.
4. Mavlonova R.A. va boshq., Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Toshkent – 2014
5. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Toshkent – 2018.
6. Shlyayxer A.. “Jahon miqyosidagi ta‘lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak?” / so‘z boshi Sh. Shermatov, H. Umarova; Umumiy tahrir D. Norboyeva. Toshkent: “Zamin Nashr” nashriyoti, 2022
7. Xasanov O. Liderlar kitobi. Toshkent – 2020.
8. Headway kursi (Oxford University Press): Beginner, Elementary, Pre-Intermediate, Intermediate bosqichlari bo‘yicha Student’s Book va Teacher’s Book (4- va 5-nashrlar).

XI. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2024.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–79-son Farmoni
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentyabrdagi “Maktabdan tashqari ta‘lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–277-son qarori

MAKTAB MASLAHATCHISI LAVOZIMI UCHUN SUHBAT BOSQICHINING O'TKAZILISH TARTIBI VA BAHOLASH MEZONLARI

Suhbat o'tkazish tartibi

Umumiy o'rta ta'lim maktablari maslahatchisi lavozimiga tanlovning ikkinchi bosqichi suhbat (intervyu) shaklida amalga oshiriladi. Bunda talabgorlarga bilek tanlash imkoni beriladi. U **5 ta** savoldan iborat bo'ladi. Biletni tanlagach, tayyorlanish uchun **10 daqiqa** vaqt beriladi. Shundan so'ng biletidagi savollarga javob berish uchun **15 daqiqa** beriladi. Suhbat davomida zarurat tug'lsa, qo'shimcha savollar berilishi mumkin. Suhbat jarayonida har bir topshiriq umumiy baholash rubrikasi asosida **9 ballik** tizimda baholanadi. Nomzodlarning tegishli ko'nikmalari umumiy **45 ball** bilan baholanadi.

Suhbat jarayonida nomzodlarning o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va kasbga yo'naltirish, akademik rejalashtirish va oliygohlarga yo'naltirish, loyihalar, treninglar va tarmoq to'garaklarini tashkil etish, sohaga doir istiqboldagi rejalari va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va ijtimoiy-madaniy ko'nikmalari baholanadi.

Topshiriq namunasi

1-bilet

1. STEM yo'nalishi bo'yicha qaysi kasblarga kelajak 5 – 10 yil ichida talab yuqori bo'ladi? Fikringizni asoslang.
2. Milliy qadriyatlarimizdan qaysilarini yoshlarimizga singdirish kerak deb hisoblaysiz? Fikrlaringizni asoslang.
3. O'quvchini xalqaro yoki milliy universitetlarga tayyorlash bo'yicha yo'l xaritasini tuzing. (Bosqichlar, harakatlar ketma-ketligini va muddatlarni aniq belgilang)
4. O'quvchi va uning ota-ona o'rtasida kasb tanlash borasida konflikt yuzaga keldi. Masalani qanday hal qilasiz? (Harakatlar ketma-ketligini va tavsiyalarni aniq ifodalang)
5. Maktabingizda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish yuzasidan istiqboldagi rejalarigiz haqida gapirib bering.

BAHOLASH RUBRIKASI *

Indikatorlar / baholash mezonlari	3 ball (yuqori)	2 ball (o'rta)	1 ball (boshlang'ich)	0 ball (qoniqarsiz)
Og'zaki javobning topshiriq mazmuniga mosligi	Topshiriq to'liq tushungan, ochib berilgan, vaziyat (mavzu, muammo) to'g'ri talqin qilingan, mavzudan chekinish yo'q	Topshiriqning asosiy qismi yoritilgan, lekin muhim tomonlari yetarlicha yoritib berilmagan	Topshiriq qisman tushunilgan, yetarlicha ochib berilmagan, Fikrning markaziy mavzusidan chekinish holatlari ko'p uchradi	Topshiriqni tushunmagan, javob mos emas, javob bera olmadi
Og'zaki javobning dalillanganligi va yaxlitligi	Fikrlar o'zaro bog'langan, mulohazalar va dalillar yetarli, ketma-ket rivojlangan, nutq tartibli, kirish, asosiy qism, xulosadan iborat va yaxlit.	Fikrlar orasida aloqalar uzilish uchraydi, ba'zan dalillanmagan o'rinlar mavjud. Nutq qismlarga ajratilib ifoda etilgan, ammo ulardan biri yetarlicha yoritilmagan	Fikrlar orasida aloqalar sust, dalillar yuzaki va kam. Nutq qismlarga ajratilmagan va yaxlit emas.	Nutq mazmunsiz, dalillanmagan, tartibsiz, unda izchillik yo'q, qismlardan iborat emas.
Og'zaki nutqda muloqot maneralarini tanlay olishi	Suhbatdosh holatiga mos moslashuvchan muloqot maneralarini to'g'ri tanlaydi, ohang va tempni vaziyatga mos boshqaradi. Muloqotda rasmiylik va norasmiylikdan muvozanatda foydalanadi. Qarama-qarshi fikrlar bildirilgan holatlarda ham professional muloqot ohangini yo'qotmaydi.	Muloqot maneralarini deyarli to'g'ri tanlaydi, lekin ayrim joylarda ohang yoki tempdagi beqarorlik seziladi. Ba'zi holatlarda ortiqcha rasmiylik yoki ortiqcha norasmiylik kuzatiladi. Faol tinglash yoki qayta ifodalash ko'nikmasi mavjud, biroq ziddiyatli vaziyatlarda nazoratni boshqara boshqara olmaydi.	Muloqot manerasini tanlashda qiyinaladi, nutq ohangi va uslubi ba'zan vaziyatga mos kelmaydi. O'ta rasmiy yoki haddan tashqari norasmiy uslubda gapirdi. Qiyin yoki ziddiyatli vaziyatlarda muloqot sifati tushib ketadi, nazoratni yo'qotadi.	Muloqot manerasini farqlamaydi, nutq ohangi, tempi va uslub vaziyatga mos kelmaydi. Suhbat davomida nutqini boshqara olmaydi.

* Baholash jarayonida nomzodlarning ballari teng kelib qolganda, etik me'yorlarga, tashqi imiga amal qilishi hamda sohaga doir xorijiy tajribalarni o'rganganlik darajasini inobatga olib, ustuvorlik berish tavsiya etiladi.